ZULFIYANING “MUSHOIRA” SHE’RIDAGI URBONIMLARNING BADIIY–ESTETIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Shermamatova Navbahor Orifjon qizi,
Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal’a fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: navbahorshermamatova7@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zulfiyaning “Mushoira” she’rida qo‘llangan urbonimlarning lingvopoetik xususiyatlari, Ularning badiiy makon yaratishdagi o‘rni hamda semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *badiiy makon, poetik funksiya, kommunikatsiya, lingvopoetika, urbonim, gidronim, toponim, semantika.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвопоэтические свойства городских названий, используемых в стихотворении Зульфии «Мушойра», их роль в создании художественного пространства и их семантические свойства.*
Ключевые слова: *художественное пространство, поэтическая функция, коммуникация, лингвопоэтика, городское название, гидроним, топоним, семантика.*

Annotation. *This article analyzes the linguopoetic properties of urban names used in Zulfiya's poem "Mushoira", their role in creating an artistic space, and their semantic properties.*
Key words: *artistic space, poetic function, communication, linguopoetics, urban name, hydronym, toponym, semantics.*

KIRISH

O‘tgan asrning 70-yillarida onomastika sohasida chop etilgan bibliografik ma’lumotnomalarni kuzatish shuni ko‘rsatadiki, unda **urbonim/urbanonim** atamalarining qo‘llanishida asta-sekin o‘zgarish yuz bera boshlagan.Masalan, uning 1-nashrining (1976) “Asosiy atama va tushunchalar indeksi” bo‘limida “urbonim”, “urbonimik tizim”, “urbonimiya” atamalari qo‘llangan.[1]

E. Begmatov va N. Uluqovlarning “Onomastik terminlarning izohli lug‘ati” asarida “urbanonim” atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi: u shahar hududi ichida joylashgan barcha topografik obyektlarning atoqli otlarini anglatadi. Bunday nomlarga agoronim, godonim, xoronim, ekllezionim va oykodomonimlar kiradi. Mazkur atama toponimlarning bir turi sifatida qaraladi. Shuningdek, ushbu tushuncha bilan bog‘liq holda “urbanonimika” va “urbanonimiya” atamalari ham izohlangan.[2]

O‘zbek adabiyotida alohida e’tiborga olib ta’riflanuvchi jumla bu–badiiy makon tushunchasi hisoblanadi. Badiiy makon yaratish vositalari orasida urbonimlar alohida ajralib turadi. Ular nafaqat geografik hududni belgilashda, balki o‘sha asarning

[1] Onomastika: Ukazatel' literatury, izdannoj v SSSR s 1963 po 1970 gg. [Tekst] / Otv. red. N. V. Podol'skaya. – M., 1976. – 206 s.
[2] Begmatov E., N.Uluqov N. Onomastik terminlarning izohli lug‘ati. Namangan, 2006. -105 b.

g‘oyaviy xususiyatlari, estetik tasiri hamda semantik qatlamini boyitishda ham alohida e’tiborga loyiq. Zulfiya ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak bu jihat “Mushoira” she’rida yorqin namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. She’rda turli geografik nomlar orqali keng qamrovli badiiy maydon yaratilgan bo‘lib, ular she’rning asosiy g‘oyalarini ochishga xizmat qilgan muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi.

“Mushoira she’ridagi urbonimlar oddiy qo‘llanish emas, balki murakkab popetik belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda markaziy makon sifatida Hindiston berilgan bo‘lsada, Kashmir, Panjob, Nepal, Vetnam, Xitoy, Eron, Mo‘g‘ul va Afrika kabi hududlarning aytilishi natijasida yaratilgan badiiy makon madaniy ihatdan juda kengayadi.

Urbonimlarning ikkinchi muhim xususiyati shundaki, ularning kommunikativ – semantik zichligi bilan bog‘liqdir. Masalan, Nil va Gang daryolari oddiy gidronim sifatida emas, balki svilizatsion taraqqiyot, muqaddaslik va hayotiylik belgilari sifatida namoyon boladi. Xuddi shuningdek, Bag‘dod urbonimi ham Sharq svilizatsiyasiningilmiy va madaniy markazi sifatida tarixiy xotirani faollashtiradi, Xitoy esa qadimiylik va uzluksizlik timsolini namoyon qiladi. Natijada oddiy bir badiiy maydon emas, balki butun dunyo shoirlarini birlashtiruvchi ulkan bir badiiy va ma’naviy maydon xosil bo‘ladi.

Urbonimlar she’rda, avvalo, makon kengligi va global ruhni ifodalashga xizmat qiladi. Misol sifatida Hindiston markaziy sahna sifatida sifatida olinadi, biroq unga boshqa hududlar ham ruhiy jihatdan ulanib, she’rni milliy emas, balki umuminsoniy ruhga olib chiqadi. Urbonimlar orqali madaniy rang–baranglik va millik o‘ziga xoslik ochib beriladi.Har bir hudud o‘ziga xos timsollar bilan she’rda alohida namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan gidronimlarni keltiradigan bo‘lsak,

- Nil daryosi orqali qudrat va hayot manbai,
- Gang orqali muqaddaslik va poklik,
- Bengal orqali tabiat go‘zalligi,
- Xitoy va bag‘dod orqali qadimiy madaniyat va hunarmandchilik ifodalanadi.

Bu tasvirlarni berish orqali she’rga nafaqat geografik, balki badiiy–estetik boylik olib keluvchi birlik sifatida keladi. Shoira bu nomlarni qo‘llash orqali “Tinchlik va birdamlik” xaritasini chizadi. Har bir nom ostida anglashiladigan ma’no xalqning milliy ruhiyati va dardlari yashiringan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asardagi urbonim va toponimlarning estetik vazifasi o‘ta yuqori darajada. Ular she’rning badiiy holatiga quidagi usullarni singdiradi: do‘stlik va umuminsoniy qadriyatlar:

“Bilaman, sening ham bunda do‘sting bor,
Balki Bombeyda u, balki Kashmirda.”

Bu satrlarni she’rda qo‘llash shunchaki nom bilan atash emas, balki har millat do‘stligi, yaqinligi, qalb yaqinligi va ijodiy do‘stlik masofa tanlamasligining estetik ifodasidir. Bundan tashqari kosiblik va hunarmandlik madaniyati borasida shoira mushoira poygagida yechilgan xilma–xil poyabzallarni sanar ekan, dunyo xaritasini xosil qiladi: Xitoy, Bag‘dod, Seylon(Shri-Lanka), Eron, Mo‘g‘uliston, Panjob. Ushbu o‘rinda shaharlar va davlatlar nomlari o‘sha elning mehnati, peshona teri va milliy o‘ziga xosligi o‘laroq estetik joziba kasb etadi.

She’rda Nil, Gang kabi daryolar va Bengal ko‘rfazi kabi yirik toponimlar ham uchraydiki, ular ular mushoira o‘tayotgan muhitning tabiiy salohiyati va ijodkorlar ilhomining daryodek jo‘shqinligini semantik jihatdan kuchaytirilgan. Zulfiya she’riga xorijiy urbonimlarni olib kelar ekan, ularni o‘zbekona milliy tushunchalari bilan assossiatsiyalaydi. “O‘zbek supasiday sahnada gilam:” misrasidan so‘ng xorijiy nomlarning keltirilishi o‘quvchida musofirlik hissini emas, balki dunyoning barcha burchagi Sharq farzandi uchun o‘z uyidek aziz ekani haqidagi estetik xulosani uyg‘otadi. Poygakda tizilgan xilma–xil poyafzallar orqali shoira Sharqning mehmondo‘stlik va ostonoda oyoq kiyim yechish kabi buyuk qadriyatini yuksak estetik pafos bilan tasvirlagan.

XULOSA

Zulfiyaning “Mushoira” she’ridagi urbonimlar va keng ko‘lamli toponomik birliklar shunchaki lirik qo‘llanish emas. Ular asarda Sharq va Afrika xalqlarining birligi va birdamligi g‘oyasini moddiylashtiruvchi, har bir millatning o‘ziga xosligini, hunarini, madaniyatini yoritib beruvchi, she’riyatning jug‘rofiy chegaralarini buzib o‘tuvchi qudratini ko‘rsatuvchi o‘xiga xos estetik ramzlar bo‘lib xizmat qilgan. Shoiraning bu boradagi mahorati she’rning xalqaro miqyosdagi ohangdorligini va falsafiy teranligini ta’minlagan. Urbonimlar orqali poetik vaqt kategoriyasi ham bilvosita ifodalanadi. She’rdagi urbonimlar orqali “birlik ichidagi xilma–xillik” konsepti ifodalanadi. Natijada zulfiya nafaqat badiiy makon yaratadi, balki insoniyatni birlashtiruvchi umumiy ma’naviy platformani ham tasvirlaydi. Bu esa she’rni oddiy lirik asardan yuqori darajadagi falsafiy–estetik matnga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Onomastika: Ukazatel' literatury, izdannoj v SSSR s 1963 po 1970 gg. [Tekst] / Otv. red. N. V. Podol'skaya. – M., 1976. – 206 s.
2. Begmatov E., N.Uluqov N. Onomastik terminlarning izohli lug‘ati.Namangan, 2006. -105 b.
3. Zulfiya. Saylanma asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008.
6. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.